

**SIRDARYO VILOYATI SAYXUNOBOD TUMANI TUPROQLARINING
TA'MINLANGANLIK VA SHO'RLANISH DARAJALARI**

X.A.Rayimberdiyev
Eshonqulov M. A
PSUYAITI Sirdaryo ITS
Ravshanova G.
Tadqiqotchi

Annotasiya. *Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanining sho'rlanishga moyil eskitdan o'zlashtirilgan och tusli bo'z tuproqlarining kimyoviy tarkibi, sho'rlanish darajalari keltirilgan.*

Tadqiqotning dolzarbligi. So'ngi yillarda inson omili ta'sirida dunyoda qishloq xo'jaligi yerlarining 34 foizi degradatsiyaga, eroziyaga uchrashi, oziqa moddalar zaxirasi kamayishi va sho'rlanish darajasi ortishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar shu zaylda davom etishi oqibatida 2050 yilga kelib 90 foiz maydon tuproqlari turli darajada ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha degradatsiyadan ko'rilayotgan yillik zarari 490 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Yuzdan ortiq mamlakatlarda 2,6 mlrd. odam tuproq degradatsiyaga uchrashi va cho'llanish ta'siridan aziyat chekmoqda. Qolaversa, yaylovlarning taxminan 73 foizi, lalmi yerlarning 47 foizi hamda sug'oriladigan ekin maydonlarining salmoqli qismi degradatsiyaga uchragan.

Bugun mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash hamda tuproq xossa va xususiyatlarini maqbullashtirish, tuproq unumdorligini cheklovchi omillarni aniqlash, xususan, tuproq resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, sohani raqamlashtirish masalalariga ham davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda bu borada huquqiy asos yaratilib, ko'plab farmon va qarorlar qabul qilingani va ular asosida muayyan chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Mazkur yo'nalishda Prezidentimizning 2022 yil 10 iyundagi "Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2022 yil 25 martdagi "Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlarda respublikadagi sho'rlangan tuproqlar maydonini 2026 yilga qadar 120 ming gektarga kamaytirish, sifati 61 balldan past bo'lgan 450 ming gektar tuproq unumdorligini yaxshilash, agroklaster va fermer xo'jaliklariga qarashli bo'lgan 1 mln. gektar ekin maydonlarida "Tuproq klinikasi" xizmatlarini ko'rsatish, tuproqdagi gumus miqdori bir foizgacha bo'lgan maydonlarni 1,1 mln. gektarga kamaytirish, degradatsiyaga uchragan yaylov maydonini 1,8 mln. gektarga tushirish va 26 ming gektar maydonda ixotazorlar barpo etish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Respublikamiz miqyosida o'tkazilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida jami 2 mln 418,8 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlarining 1 mln 743,6 ming (72,1%) turli darajada sho'rlanganligi, shundan 930 ming gektar (38,4%) kuchsiz darajada, 550,5 ming gektar (22,8%) o'rtacha, 149,5 ming gektar (6,2%) kuchli va 113,6 ming gektar (4,7%) juda kuchli

darajada sho'rlanganligi aniqlangan. Jumladan Sirdaryo viloyatida jami 266,7 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlaridan 211,4 ming gektar (79,3%) turli darajada sho'rlangan, shundan 39,8% kuchsiz, 30,4% o'rta, 6,4% kuchli va 2,7% juda kuchli darajada sho'rlanganligini aniqlashgan [1].

Sho'rlanish tipiga ko'ra, sizot suvlari barcha holatlarda sulfatli, kationlar kesimida (kalsiyli-magniyli) ayrim kesmalarda natriyli-magniyli sho'rlanish tiplari uchragan. Viloyatda sug'orish uchun ariq suvlariga qo'shimcha sifatida kollektor suvlaridan foydalanish tufayli ikkilamchi sho'rlanish kuchayotganligi kuzatilgan [2].

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar tarkibida gumus va oziqa moddalari bilan kam ta'minlangan. Haydalma qatlamdagi gumus 0,6-0,8%, ayrim joylarda 1,0% ni tashkil etadi. Quyi qatlamlarda esa 0,2-0,4% gacha kamayadi. Gumus miqdoriga bog'liq ravishda umumiy azot ham juda kam. Mexanik tarkibiga ko'ra bu tuproqlar o'rta va yengil qumloqlardan, ayrim hollarda esa qumloqlardan iborat [3].

Sirdaryo viloyati tuproq sharoitlari. Sirdaryo viloyatining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 427,6 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 287,2 ming gektarni tashkil etadi. Shundan 213,7 ming gektari kuchsiz, 59,9 ming gektar o'rtacha va 5,4 ming gektar maydon kuchli sho'rlanish darajasiga kiradi. Viloyat hududida gidromorf va yarim gidromorf tuproqlar keng tarqalgan. Sirdaryo viloyatining sug'oriladigan tuproqlari och tusli bo'z, o'tloqi-bo'z, bo'z-o'tloqi tuproqlardan iborat. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar viloyat umumiy maydonining 13,2 %ni tashkil etib, asosan Guliston, Sayxunobod va Sirdaryo tumanlarida tarqalgan.

Sug'oriladigan och tusli o'tloqi bo'z tuproqlarning kimyoviy tarkibi, sho'rlanish darajalari bo'yicha Sayxunobod tumanidagi "Poly Tex Sirdaryo" MChJ qoshidagi "Agrolaboratoriya"da tumanning turli hududlaridan tuproq namunalari olib kelingan xolda o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Sayxunobod tumani hududlari tuproqlarining ta'minlanganlik darajasi

Xudud nomi	Fermer xo'jaligi nomi	Kontur raqami	Gumus %	Ta'minlanganlik darajasi	Fosfor mg/ml	Ta'minlangalik darajasi	Kaliy mg/kg	Ta'minlanganlik darajasi	Gektar
A.Temur	Ermatov Umid	1718	0,87	kam	18,51	kam	155	kam	7,6
		1713	0,85	kam	26,1	kam	200	kam	10,7
	Lazizbek Qilichbek orzusi	1769	0,98	kam	26,7	kam	304	o'rtacha	19,9
Buston	Rashidova Dilbar	4984	1,33	o'rtacha	27,1	kam	431	j.yuqori	13,6
	O'rikzor yakka archasi	5247	1,27	o'rtacha	30,6	o'rtacha	367	yuqori	16,6
Shurazak	Dilnoza Shuxratovna	2668	1,33	o'rtacha	32,2	o'rtacha	356	yuqori	25,2

Paxtakor	Sayxun nasl chorva	3100	1,47	o'rtacha	25,4	kam	424	j.yuqori	15
	Tojmaxal 2024	3116	1,64	yuqori	36,0	o'rtacha	431	j.yuqori	11,8
Farovon	Farovon bo'risi 777	2920	1,63	yuqori	45,05	o'rtacha	297	o'rta cha	31,3
	Farovon 777	2923	1,61	yuqori	42,32	o'rtacha	360	yuqori	27,8
Guliston	Sayxun milk MChJ	3561	0,90	kam	30,98	o'rtacha	213	o'rta cha	29,9
T G'ulomov	Sodiqov Farmonqul ota	1165	1,47	o'rtacha	30,27	o'rtacha	272	o'rta cha	28,5
	Begzod Shaxzod zamonlari	1075	1,65	yuqori	56,4	yuqori	204	o'rta cha	10,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Сайхунобод туманини 7 та худудидаги фермер хўжаликларининг 2025-йилда ғўза парваришланадиган майдонлари тупроқлари гумус миқдори ва фосфор-калий билан таъминланганлик даражалари турлича бўлиб, А.Темур худудида гумус миқдори кам, Бўстон худудида эса ўртача даражада таъминланганлиги кузатилди. Шунингдек Бўстон худудидаги фермерлар экин майдонларида калий билан таъминланганлик даражаси ҳам юқори эканлиги аниқланди.

Sho'rlanishga moyil tuproqlarning mikro va makroelementlarni singdirish qobiliyatiga qarab ham tuproqning sho'rlanish hamda Tuproq qatlamidan o'tayotgan suvda erigan va erimagan moddalar, turli gazlar hamda mikroorganizmlarning tuproqda ushlanib qolishi, ya'ni tuproqning singdirish qobiliyatiga aytiladi. Ushbu o'rganilgan tuproqlarda singdirish sig'imi 9,08-16,43 mg/ekv ni tashkil qiladi. Singdirish sig'imi asosan tuproq tarkibidagi gumus, mexanik tarkibi va fizik loy miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tuproq tarkibidagi gumus miqdori ko'p va mexanik tarkibi og'ir bo'lsa singdirish sig'imi yuqori bo'ladi. Natijada tuproq unumdor hisoblanadi. O'rganilgan tuproqlarda asosan: Kalçiy miqdori 53,3 % atrofida bo'lib tuproqlarimiz kuchsiz ishqoriy hisoblanadi hamda o'simliklar o'sib rivojlanishi uchun maqbul sharoit hisoblanadi. Magniy -miqdori 38,1 % atrofida bo'lib, tuproqlarda qisman sho'rxoklanish kuzatiladi. Tuproq singdirish sig'imida natriy -miqdori 2,3 %, kaliy - miqdori 6,3 % ni tashkil qiladi, 3 - kesmaning 0-30sm qatlamidagi tuproq singdirish sig'imida natriy - miqdori 40,7 % ni tashkil qilib sho'rtoblanish aniqlandi.

Och tusli buz tuproqlar viloyatning asosiy maydonlarini tashkil etadi. Tuproqni oziqa moddalari bilan ta'minlanishi quyidagicha chirindi miqdori 0,5 - 1,0 foiz, azot 0,05 - 0,09 foiz, fosfor 0,05 - 0,2 foiz, kaliy 2 - 2,5 foizni tashkil etadi. Viloyatda er osti suvining chuqurligi 1 metrdan boshlanib 3-5 metr chuqurlikda joylashgan. Er osti suvlarining minerallashuv darajasiga ko'ra turlicha. Agarda Sirdaryo konusining pastki qismida sizot suvlarining minerallashuvi xar litrda 3 grammni tashkil etsa, Sardoba va Sho'ruzak Markaziy kollektorlari

oralig'idagi pastqamliklarda ularning minerallashuvi xar litrda 4 - 19 gramm atrofida bo'lishi kuzatilgan.

1-jadval

Sayxunobod tumani hududlari tuproqlarining sho'rlanish darajasi

Xudud nomi	Xo'jalik nomi	Kontur raqami	Sho'rlanish miqdori	Sho'rlanish darajasi	pH ko'rsatkichi	Tuproq muhiti
A.Temur	Ermatov Umid	1718	0,0168	kam sho'rlangan	7,86	kuchsiz ishqorli
		1713	0,0235	kam sho'rlangan	7,89	kuchsiz ishqorli
	Lazizbek Qilichbek orzusi	1769	0,019	kam sho'rlangan	8,19	ishqorli
Bo'ston	Rashidova Dilbar	4984	0,025	kam sho'rlangan	7,88	kuchsiz ishqorli
	O'rikzor yakka archasi	5247	0,020	kam sho'rlangan	8,15	ishqorli
Shurazak	Dilnoza Shuxratovna	2668	0,023	kam sho'rlangan	7,92	kuchsiz ishqorli
Paxtakor	Sayxun nasl chorva	3100	0,032	o'rta sho'rlangan	7,7	kuchsiz ishqorli
	Tojmaxal 2024	3116	0,027	o'rta sho'rlangan	7,69	kuchsiz ishqorli
Farovon	Farovon bo'risi 777	2920	0,024	kam sho'rlangan	7,95	kuchsiz ishqorli
		2923	0,033	o'rta sho'rlangan	7,81	kuchsiz ishqorli
Guliston	Sayxun milk MChJ	3561	0,023	kam sho'rlangan	8,06	ishqoriy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov O.A. va boshqalar O'zbekiston sug'oriladigan erlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash. Toshkent."Universitet" 2018 312-b.
2. Musurmanov N.U.Madrimov.R.M. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan erlarini sho'rlanganligi va ularning tuz rejimini baholash J. Ekonomika i soqium №12 (115)-1 2023 1264-b
3. O'zbekiston tuproqlari va ulardan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish Agrobank ATBning 100 kitob to'plami, 33-bet